



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS:3 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS



№	MUNDARIJA	Page
1.	TOVARLAR AUDITI NATIJALARINI AUDITORLIK HISOBOTIDA AKS ETTIRISH TARTIBI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Qurbonov Muhammadali Bahodirovich</i>	4
2.	O'ZBEKISTONDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shirinova Obida Toshpulatovna</i>	8
3.	ORGANIZATION OF AN AUDIT OF THE MOVEMENT OF FIXED ASSETS BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS REQUIREMENTS <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Orzumurodova Farangiz Damirovna</i>	12
4.	QURILISH TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Qo'chqorov Muslimbek Bobojon o'g'li</i>	16
5.	SAVDO KORXONALARIDA TOVAR OPERATSIYALARI AUDITINING TASHKILY TA'MINOTI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Tursunboyev Sarvar Shuxrat o'g'li</i>	19
6.	SAVDO KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich</i>	24
7.	TURIZM KORXONALARIDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH <i>Ibragimov Mansur Mardonovich</i>	27
8.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA NAZORATINING INNOVATSION MEXANIZMLARI <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Davronov Miraziz Baxtiyor o'g'li</i>	30
9.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	33
10.	MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINING ZAMONAVIY METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Yusupov Shavkar Xushvaqt o'g'li</i>	37
11.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Akmalov Ilg'or Nazirovich</i>	41
12.	XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALARDA XARAJATLAR HISOBI VA KALKULYATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Toshbekov Firdavs Abdurauf o'g'li</i>	44
13.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	47
14.	ASOSIY VOSITALARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDA TASNIFLASH VA BAHOLASHNI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shakarov Shahzod Sobir o'g'li</i>	52
15.	XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING KREDIT VA QARZ MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH HISOBINI VA TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Mahmudova Go'zal Samadjon qizi</i>	56

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamiyev Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



TURIZM KORXONALARIDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH

Ibragimov Mansur Mardonovich

Samarqand iqtisodiyot va servis institutit dotsenti

ORCID: 0009-0008-5996-0862

e-mail: mansur.ibragimov.63@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizm korxonalarida hisob siyosatini shakllantirish masalalari yoritilgan. Hisob siyosatining mohiyati va zarurati, shuningdek turizm korxonalarida hisob siyosatining umumiy, uslubiy, texnikaviy va tashkiliy jihatlari bo'yicha tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: ra

Abstract: This article discusses the issues of forming accounting policies in tourism enterprises. The essence and necessity of accounting policy are revealed, and recommendations on the methodological, technical, and organizational aspects of accounting policy in tourism enterprises are developed.

Keywords: accounting policy, general section, methodological aspects, technical section, organizational section, international standards.

Абстрактный: В данной статье освещены вопросы формирования учетной политики на туристических предприятиях. Раскрыты сущность и необходимость учетной политики, а также сформированы рекомендации по методическим, техническим и организационным аспектам учетной политики в туристических предприятиях.

Ключевые слова: учетная политика, общий раздел, методические аспекты, технический раздел, организационный раздел, международные стандарты.

Kirish (Введение/Introduction).

Respublikamizda keyingi yillarda turizm sohasini davlat tomonidan qo'llab – quvvatlash, turizm bilan shug'ullanuvchi korxonalariga imtiyozlar yaratish, shuningdek, turizm sohasi uchun infratuzilmani shakllantirish borasidagi tadbirlar jadal sur'atlar bilan olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 son qarori bilan tasdiqlangan „O'zbekiston Respublikasini 2022-2026-yillarda Rivojlantirish Strategiyasi“da 35-maqсад: “O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling” dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish belgilangan.

Ushbu maqsadni amalga oshirish borasida quyidagi vazifalar belgilangan:

“To'siqsiz turizm infratuzilmasini mamlakatning asosiy turizm shaharlarida keng joriy qilish. 2026-yilgacha turizm sohasida band bo'lgan aholi sonini 2 baravar oshirib, 520 ming nafarga yetkazish.

300 million AQSH dollariga teng loyihalarni amalga oshirish, 25 ming ish o'rinini yaratish.

Samarqandni “Turizm darvozasi”ga aylantirish orqali kelgusi besh yilda turizm xizmatlari hajmini kamida 10 baravarga oshirish. Turizm sohasida 40 ming kishi bandligini ta'minlash. “Abadiy shahar” tarixiy majmuasini o'z ichiga olgan Samarqand turizm markazini va zaruriy infratuzilmani tashkil etish.” [3]

Tabiiyki turizm sohasi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi hamda boshqa omillar ta'sirida jadal rivojlanayotgan bir paytda turizm korxonalarining moliya- xo'jalik faoliyatini to'g'ri tashkil etish, ularning pul oqimlarini samarali boshqarish muhim ahamiyatga ega. Umuman barcha subyektlarda bo'lganidek, turizm korxonalarida ham hisobni yuritish, hisobotlar tuzish jarayonidagi dastlabki muhim vazifa hisob siyosatini shakllantirish bo'lib hisoblanadi.

Hozirda boshqa yo'nalish korxonalaridagi kabi turistik korxonalarda ham hisob siyosati ishlab chiqiladi va unga muvofiq hisob ishlari yuritiladi. Ammo ularning barchasi ham ularning barchasi ham mukammal va xalqaro standart (MHXS) talablariga to'laqonli ravishda mos emas. Hisob siyosati 1-son BHMS “Hisob siyosati va moliyaviy hisobot” [4], MHXS “Hisob siyosatlarini, hisoblab chiqilgan baholardagi o'zgarishlar va xatolar” standarti [5] asosida tuziladi.

Ushbu MHXSning maqsadi hisob siyosatini tanlash va o'zgartirish uchun mezonlarni o'rnatish hamda hisob siyosatidagi o'zgarishlar,

hisoblab chiqilgan baholardagi o'zgarishlar va xatolarni tuzatishni hisobga olish tartibini va ularga tegishli ochib beriladigan ma'lumotlarni belgilashdan iborat.

Hozirda ham ba'zi turizm korxonalarida hisob siyosati hisob tizimini xalqaro standartlarga o'tkazilishi sharoitida hisobdagi o'zgarishlarga mos ravishda tuzilmayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Hisob siyosati tushunchasi va uni shakllantirish uslubiyoti xorijiy va mahalliy olimlarimiz tomonidan keng tadqiq qilingan.

Buxgalteriya hisobining milliy standarti 1-son BXMS “Hisob siyosati va moliyaviy hisobot”da hisob siyosatiga quyidagicha ta'rif berilgan: “Hisob siyosati” deganda buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzish uchun, ularning tamoyillari va asoslariga muvofiq, xo'jalik yurituvchi subyekt rahbari tomonidan qabul qilingan qoida va usullar majmuasi tushuniladi» [4].

Professor N.Jo'rayev bergan ta'rifga ko'ra «Hisob siyosati -bu xo'jalik subyektlari faoliyatini tartibga soluvchi qonuniy-me'yoriy hujjatlarda ruxsat etilgan buxgalteriya hisobining muqobil usullari va shakllaridan korxonada tanlab olgan hamda e'lon qilgan buxgalteriya hisobi tizimidir» [6].

Professor A. Ibragimov hisob siyosatiga «Hisob siyosati – bu tanlangan korxonada uning xo'jalik faoliyatini yuritishga to'liq javob beradigan buxgalteriya hisobini yuritish usullari yig'indisidir» deb ta'rif bergan. [7]

Professor R.Xolbekov hisob siyosatiga «Korxonada hisob siyosati deganda, korxonada buxgalteriya hisobining hukumat tomonidan qabul qilingan qonun, tartib, farmonlardan foydalanib hamda korxonaning o'ziga xos texnologik xususiyatlarini inobatga olib tashkil qilinishi tushuniladi» deb ta'rif beradi. [8]

Professor M. Tulaxodjayevaning fikriga ko'ra «Hisob siyosati deganda, xo'jalik yurituvchi subyektning rahbari tomonidan buxgalteriya hisobini yuritish va ularning tamoyillari va asoslariga muvofiq ravishda moliyaviy hisobotlarni tuzish uchun qo'llaniladigan usullarning jamlanmasi tushuniladi» [9].

M.Temirxanova fikri bo'yicha «Hisob siyosati - bu buxgalteriya hisobini tashkil qilish, yuritish va moliyaviy hisobotni tuzishning muqobil tamoyillari va qoidalariga asoslanib, xo'jalik yurituvchi subyekt rahbari tomonidan qabul qilingan muqobil usullar va qoidalar

majmuasi tushuniladi». [10].

D.Sativaldiyeva hisob siyosatiga quyidagi ta'rifni beradi: «Hisob siyosati - bu buxgalteriya hisobini tashkil qilish, yuritish va moliyaviy hisobotni tuzishning muqobil tamoyillari va qoidalariga asoslanib, xo'jalik yurituvchi subyekt rahbari tomonidan qabul qilingan maqbul usullar va qoidalar majmuasidir».

Rossiya olimlaridan O.V.Rojnova va S.N.Grishkinalarning fikriga ko'ra: «Hisob siyosati – korxonada asosiy faoliyati doirasida va umumiy qabul qilingan qoidalar asosida korxonada buxgalteriya hisobini yuritishning aniq usul va shakllari yig'indisidir» [11].

Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti 8-son «Hisob siyosatlari, hisoblab chiqilgan baholardagi o'zgarishlar va xatolar»ning 5-bandida hisob siyosatiga quyidagicha ta'rif berilgan: «Hisob siyosati – bu tadbirkorlik subyektini tomonidan moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda va taqdim etishda qo'llaniladigan muayyan tamoyillar, usullar, odatlar, qoidalar va amaliyotlardir»[5].

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Методы /Methods).

Mazkur tadqiqotda turizm korxonalarida hisob siyosatini shakllantirishning nazariy-uslubiy asoslari hamda amaliy jihatlari o'rganildi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida buxgalteriya hisobi nazariyasi, korporativ boshqaruv tamoyillari, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) talablari va turizm sohasi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlariga asoslangan ilmiy yondashuvlardan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, analiz va sintez, induksiya va deduksiya kabi umumilmiy usullar qo'llanildi. Ushbu usullar yordamida hisob siyosatining iqtisodiy mazmuni, uning korxonada faoliyatidagi o'rni hamda turizm korxonalarida hisob siyosatini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar tizimli ravishda o'rganildi.

Tadqiqotning nazariy asoslarini shakllantirish maqsadida mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, xalqaro standartlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda turizm sohasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil usuli yordamida turizm korxonalarida qo'llanilayotgan hisob siyosati elementlari boshqa xizmat ko'rsatish korxonalarini amaliyoti bilan solishtirildi hamda ularning afzallik va kamchiliklari aniqlandi.

Tadqiqot davomida tizimli yondashuv usulidan foydalanilib, hisob siyosati korxonaning moliyaviy boshqaruv tizimining ajralmas tarkibiy qismi sifatida baholandi. Bunda daromadlarni tan olish, xarajatlarni hisobga olish, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni baholash, amortizatsiya hisoblash, soliq hisobini yuritish hamda moliyaviy hisobotlarni tayyorlash jarayonlarining o'zaro bog'liqligi o'rganildi.

Shuningdek, iqtisodiy-mantiqiy tahlil usuli asosida turizm korxonalarining faoliyatiga xos bo'lgan mavsumiylik, xizmatlar diversifikatsiyasi, elektron to'lov tizimlari va onlayn bronlash platformalarining hisob siyosatini shakllantirishga ta'siri baholandi. Tadqiqot natijalarini umumlashtirishda guruhlash, taqqoslash va ekspert baholash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning uslubiy bazasini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, xususan, daromadlarni tan olish bo'yicha talablar, moliyaviy hisobotlarni taqdim etish tamoyillari hamda turizm korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil etishga oid zamonaviy yondashuvlar tashkil etdi.

Natijada turizm korxonalarining faoliyat xususiyatlarini hisobga olgan holda hisob siyosatini shakllantirishning samarali yo'nalishlari aniqlanib, moliyaviy axborotlarning ishonchligi va shaffofligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalarlar (Анализ и результаты/Analysis and results).

Bozor iqtisodiyoti sharoitida turizm sohasi mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri sifatida jadal rivojlanib bormoqda. Turizm korxonalarini faoliyatining kengayishi, xizmatlar turlarining ko'payishi va xalqaro bozorlarga integratsiyalashuv jarayonlari buxgalteriya hisobini samarali tashkil etish hamda puxta hisob siyosatini shakllantirish zaruratini kuchaytirmoqda. Hisob siyosati korxonaning moliyaviy natijalarini shakllantirish, moliyaviy hisobotlarning ishonchligini ta'minlash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun muhim axborot manbai hisoblanadi.

Turizm korxonalarining faoliyatini ishlab chiqarish korxonalaridan farqli ravishda asosan xizmat ko'rsatish jarayoniga asoslanganligi sababli, hisob siyosatini ishlab chiqishda xizmatlar realizatsiyasi, oldindan to'lovlar, vositachilik operatsiyalari va mavsumiylik omillarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, turizm xizmatlari bozorida faoliyat yurituvchi korxonalar uchun hisob siyosatini shakllantirishda daromadlarni tan olish tamoyillari alohida o'rin egallaydi.

Turizm korxonalarida daromadlarni hisobga olish jarayoni ko'pincha murakkab xarakterga ega bo'lib, xizmatlar bir nechta

bosqichlarda amalga oshirilishi mumkin. Mehmonxona xizmatlari, transport xizmatlari, ekskursiyalar va boshqa turistik paketlar bo'yicha tushumlarni hisobga olishda xizmatning amalda bajarilgan davrini aniqlash muhim hisoblanadi. Shu sababli hisob siyosatida daromadlarni e'tirof etish mezonlari aniq belgilanishi moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini ta'minlaydi.

Turizm korxonalarida xarajatlarni hisobga olish ham hisob siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Tahlillar natijasida aniqlanishicha, xizmatlar tannarxini shakllantirishda transport xarajatlari, mehmonxona xizmatlari uchun to'lovlar, reklama va marketing xarajatlari, sug'urta xarajatlari hamda xodimlar mehnatiga haq to'lash bilan bog'liq xarajatlarni asosiy ulushni tashkil etadi. Hisob siyosatida ushbu xarajatlarni guruhlash va hisobga olish tartibining aniq belgilanishi korxonada moliyaviy natijalarining to'g'ri shakllanishiga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi turizm korxonalarida hisob siyosatini takomillashtirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Onlayn bronlash tizimlari, elektron to'lov platformalari va avtomatlashtirilgan buxgalteriya dasturlari moliyaviy operatsiyalarni real vaqt rejimida qayd etish imkonini bermoqda. Natijada hisob ma'lumotlarining tezkorligi va aniqligi ortib, inson omili bilan bog'liq xatolar kamaymoqda.

Turizm korxonalarida asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni hisobga olish ham muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, mehmonxona majmualari, transport vositalari, dasturiy ta'minotlar va turistik brendlar korxonaning asosiy aktivlari hisoblanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, hisob siyosatida amortizatsiya usullarini to'g'ri tanlash hamda aktivlarni qayta baholash tartiblarini belgilash moliyaviy natijalarining obyektiv aks ettirilishiga yordam beradi.

Turizm sohasining o'ziga xos jihatlardan biri faoliyatning mavsumiy xarakterga egaligidir. Yilning ayrim davrlarida turistlar oqimining keskin ortishi yoki kamayishi korxonalarining daromad va xarajatlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli hisob siyosatida mavsumiy daromad va xarajatlarni hisobga olish hamda ularni hisobot davrlari bo'yicha taqsimlash mexanizmlarini belgilash muhim hisoblanadi.

Tadqiqot davomida turizm korxonalarida ichki nazorat tizimining hisob siyosati samaradorligiga ta'siri ham o'rganildi. Aniqlanishicha, ichki nazoratning samarali tashkil etilishi moliyaviy intizomni mustahkamlash, noqonuniy operatsiyalarni oldini olish va moliyaviy hisobotlar sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, elektron hujjat aylanishi va avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari ushbu jarayonlarning samaradorligini oshirmoqda.

O'rganishlar natijasida turizm korxonalarida hisob siyosatini shakllantirishda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari talablariga moslashish muhimligi aniqlandi. Xalqaro standartlar asosida ishlab chiqilgan hisob siyosati investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun moliyaviy axborotlarning taqqoslanuvchanligi va shaffofligini ta'minlaydi.

Tahlil natijalariga ko'ra quyidagi ilmiy natijalarga erishildi: turizm korxonalarida hisob siyosatini shakllantirishda xizmatlar realizatsiyasi va daromadlarni tan olish tamoyillari asosiy ahamiyatga ega;

xarajatlarni to'g'ri tasniflash va hisobga olish korxonada moliyaviy natijalarining aniqligini oshiradi;

raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan hisob tizimlari hisob siyosatini amalga oshirish samaradorligini kuchaytiradi;

mavsumiylik omilini hisobga olish moliyaviy natijalarni obyektiv baholash imkonini beradi;

ichki nazorat tizimlarining rivojlantirilishi hisob siyosati talablariga rioya etilishini ta'minlaydi;

xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga mos hisob siyosati korxonaning investitsion jozibadorligini oshiradi.

Shunday qilib, turizm korxonalarida hisob siyosatini samarali shakllantirish moliyaviy hisobotlarning ishonchligini ta'minlash, boshqaruv qarorlarining sifatini oshirish, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va korxonaning uzoq muddatli raqobatbardoshligini mustahkamlashning muhim omili hisoblanadi. Turizm sohasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan hisob siyosati korxonalarining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion).

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, turizm korxonalarida hisob siyosatini shakllantirish moliyaviy boshqaruv tizimining eng muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Hisob siyosati korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini to'g'ri aks ettirish, moliyaviy natijalarni ishonchli shakllantirish hamda manfaatdor tomonlarni sifatli axborot bilan ta'minlashga xizmat qiladi. Turizm sohasi xizmat ko'rsatish faoliyatiga

asoslanganligi, operatsiyalarning mavsumiyligi va xizmatlar turlarining xilma-xilligi bilan boshqa tarmoqlardan farq qiladi. Shu sababli ushbu sohada hisob siyosatini ishlab chiqishda faoliyatning o'ziga xos jihatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, daromadlarni tan olish, xarajatlarni tasniflash, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni hisobga olish hamda ichki nazorat tizimini tashkil etish hisob siyosatining asosiy tarkibiy qismlari hisoblanadi. Ushbu elementlarning puxta ishlab chiqilishi moliyaviy hisobotlarning aniqligi va shaffofligini ta'minlaydi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar, elektron to'lov tizimlari va avtomatlashtirilgan buxgalteriya dasturlarining keng qo'llanilishi turizm korxonalarida hisob siyosatini amalga oshirish samaradorligini sezilarli darajada oshirayotgani aniqlandi. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari talablariga mos ravishda shakllantirilgan hisob siyosati esa moliyaviy axborotlarning taqqoslanuvchanligini oshirib, korxonaning investitsion jozibadorligini kuchaytiradi.

Umuman olganda, turizm korxonalarida hisob siyosatini samarali shakllantirish moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, moliyaviy xavflarni kamaytirish, boshqaruv qarorlarining sifatini yaxshilash va korxonalarining uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Takliflar

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, turizm korxonalarida hisob siyosatini takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Turizm korxonalarining hisob siyosatini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) talablariga to'liq moslashtirish zarur. Bu moliyaviy hisobotlarning xalqaro darajada taqqoslanuvchanligini ta'minlaydi.

Daromadlarni tan olish tartibini turizm xizmatlarining xususiyatlaridan kelib chiqib aniq belgilash lozim. Xususan, turistik paketlar, mehmonxona xizmatlari va vositachilik operatsiyalari bo'yicha daromadlarni e'tirof etish mezonlari hisob siyosatida alohida aks ettirilishi kerak.

Xarajatlarni hisobga olish va guruhlash tizimini takomillashtirish maqsadga muvofiq. Bunda transport, reklama, marketing, sug'urta va boshqa xizmat xarajatlari bo'yicha alohida hisob yuritish mexanizmlarini joriy etish tavsiya etiladi.

Raqamli buxgalteriya tizimlari va avtomatlashtirilgan hisob dasturlaridan keng foydalanish zarur. Bu hisob ma'lumotlarining aniqligi va tezkorligini oshirishga xizmat qiladi.

Onlayn bronlash va elektron to'lov tizimlarini buxgalteriya hisobi bilan integratsiyalash orqali moliyaviy operatsiyalar ustidan nazoratni kuchaytirish lozim.

Mavsumiylik omilini hisobga oluvchi hisob siyosati mexanizmlarini ishlab chiqish tavsiya etiladi. Bu daromad va xarajatlarni hisobot davrlari bo'yicha adolatli taqsimlash imkonini beradi.

Ichki nazorat tizimini takomillashtirish va elektron audit elementlarini joriy etish orqali moliyaviy intizomni mustahkamlash zarur.

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni baholash hamda amortizatsiya hisoblash usullarini muntazam qayta ko'rib borish korxonaning real moliyaviy holatini aks ettirishga yordam beradi.

Buxgalteriya va moliya xodimlarining malakasini muntazam oshirib borish, ayniqsa xalqaro standartlar va zamonaviy axborot texnologiyalari bo'yicha treninglar tashkil etish maqsadga muvofiq.

Turizm korxonalarida hisob siyosatini ishlab chiqish va yangilash bo'yicha metodik tavsiyalarni takomillashtirish hamda sohaga mos namunaviy hisob siyosati shakllarini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi turizm korxonalarida hisob siyosatini yanada takomillashtirish, moliyaviy hisobotlar sifatini oshirish va korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. (Yangi tahriri) 2016 y, 14 aprel.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611 Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 son farmoni „2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida“
4. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standarti (BHMS) 1-son «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot». 1998.
5. BHXS 8 "Hisob siyosatlari, hisoblab chiqilgan baholardagi o'zgarishlar va xatolar". 2012 yil 1 yanvar.
6. Jo'rayev N. Korxonaning hisob siyosati. // J. Mulkdor. №49-50. 1998.
7. Ibragimov A. va boshq. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. O'quv qo'llanma. 2008 y.
8. Xolbekov R. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. O'quv qo'llanma. 2012 y.
9. To'laxodjayeva M.M. i drugiye. Finansovyy uchët. Uchebnoye posobiye, razrabotannoye na osnove Natsionalnykh i MSBU. – T.: APBD Uzbekistana. 2001.-305 s.
10. Temirxanova M.J. Turizm korxonalarida hisob siyosatini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari. Iqtisodiyot va innovatsiyalar ilmiy elektron jumali. №1, 2018-yil.
11. Uchetnaya politika predpriyatiya : Formirovaniye, raskrytiye / O.V. Rojnova, S.N. Grishkina. - M. : Ekzamen, 2001. - 158, [1] s. : tabl.; 21 sm.; ISBN 5- 8212-0244-2